



UDK:930.253

Sherzod BAXRANOV,
O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti o'qituvchisi
E-mail: Sherofkun82@mail.ru

PhD I.Shakirov taqrizi asosida

PAXTACHILIK ILMIY – TADQIQOT INSTITUTI FAOLIYATIGA SIYOSIY ARALASHUVNING OQIBATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatiga bag'ishlangan. SIKP Markaziy Komiteti partiya organining paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti va paxta yetishtirish sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi boshqa birlashmalar faoliyatiga tizimli aralashuvi paxta yetishtirishni ko'paytirish, uning sifatini oshirish va paxta yetishtirishda yangi texnologiyalarni joriy yetishga to'sqinlik qildi.

Kalit so'zlar: ilmiy-tadqiqot instituti, stansiya, urug'chilik ishlari, tolali navlar, tadqiqot, markaz, xodimlar, paxta, seleksiya, urug'chilik, laboratoriya, ariqlar, xom ashyosi.

CONSEQUENCES OF POLITICAL INTERFERENCE IN THE ACTIVITIES OF THE COTTON RESEARCH INSTITUTE

Annotation

This article is devoted to the activities of the Cotton Research Institute. The systematic interference of the party organ of the Central Committee of the CPSU in the activities of the cotton Research Institute and other associations involved in research in the field of cotton production hindered progress in increasing cotton production, improving its quality and introducing new technologies in cotton production.

Key words: research institute, station, sowing operations, fiber varieties, research, center, staff, cotton, breeding, sowing, laboratory, raw materials.

ПОСЛЕДСТВИЯ ПОЛИТИЧЕСКОГО ВМЕШАТЕЛЬСТВА В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО ИНСТИТУТА ХЛОПКОВОДСТВА

Аннотация

Данная статья посвящена деятельности научно-исследовательского института хлопководства. Систематическое вмешательство партийного органа ЦК КПСС в его работу и других объединений, занимающихся вопросами исследования в сфере хлопководства, мешала прогрессу в сфере увеличения производства хлопка, повышению его качества и внедрению новых технологий в хлопководстве. Представлен анализ периодической печати, литературы, а также архивных документов советского периода.

Ключевые слова: научно-исследовательский институт, станция, посевные работы, сорта волокна, исследования, центр, персонал, хлопок, селекция, посев, лаборатория, сырье.

Kirish. XX asrning boshlaridan o'lka paxtasiga bo'lgan qiziqish Rossiya imperiyasi, keyinchalik sovet hokimiyati tomonidan bu yerda paxta navlarini o'rganish, iqlimni o'rganish, yangi navlarni ixtiro qilish ishlarini tezlashtirib yubordi. Shuningdek, paxta yetishtirishni barqaror davom ettirish maqsadida Markaziy Komitet O'zbekiston SSRning ayrim hududlaridagi ishlarning haqiqiy holatini bilmasdan, ilmiy-tadqiqot instituti va shu sohasidagi tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan boshqa birlashmalar faoliyatiga aralashdi va natijada bu xolatlar salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maqolani yozishda, asosiy manba sifatida sovet davridagi O'zbekiston tarixiy arxivi va A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida saqlangan material va boshqalar xizmat qiladi. Arxiv materiallari va davriy nashrlar asosida SIKP Markaziy Komitetining paxtachilik siyosati bo'yicha bir qator tabiiy, mahalliy, iqlimiy omillar inobatga olinmagan masalalar ko'rib chiqilgan. Paxtachilikda ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati, paxtani ekish, uning parvarishini yaxshilash, ishlab chiqarish sohasidagi tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi qator tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan masalalar va takliflarning yechimlari yoritiladi va taxlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda materiallarini tizimli tahlil qilishga asoslangan, obyektivlik, tarixiy izchillik kabi tarixiy usullar to'plami qo'llaniladi.

Taxlil va natijalari. SIKP MQning 1976 yil 24 fevraldan 5 martga qadar bo'lib o'tgan XXV syezdida qabul qilingan "Xo'jaliklararo kooperatsiya va agrosanoat integratsiyasi negizida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini ixtisoslash va konsratsiyalashni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi, "Qishloq xo'jaligi fanining samaradorligini yanada oshirish va uning ishlab chiqarish yo'li bilan aloqasini mustahkamlash tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari ilm – fanni yanada markaziy boshqaruvga bo'ysundirdi. Qarorlardan kelib chiqib V.Lenin nomidagi butunittifoq qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasi O'rta Osiyo, Sharq, Kavkazorti respublikalaridagi ilmiy – tadqiqot instituti, qishloq xo'jaligini rivojlantirishning barcha yo'llari ustida izlanishlar olib borayotgan olimlarga yana geterozis, eksperimental mutagenez, turlararo gibridlashtirish, o'g'itlardan va suvdan foydalanish koefitsentini oshirish, tolaning texnologik sifatini yaxshilash, gektaridan 70-80 sentner hosil beradigan, viltga chidamli, IV va V tipdagi tola beradigan tepishar, to'qimachilik sanoati talablarini qondiradigan, hosili mashinada terishga moslashtirilgan, 37-38 foizga qadar tolasini ko'p chiqadigan

yuqori sifatli, chigiti saryog' va oqsil moddasiga boy bo'lgan serhosil paxta navlarini yetishtirish kabi vazifalar belgilandi[1].

Tadqiqot ishlariga davlat organlarining aralashuvi bilan institut bajaradigan vazifalar SIKP MQ syezd, plenumlarida belgilandi. Masalan, SIKP MQning 1977 yil dekabr plenumida L.Brejnev paxta, don va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni yanada ko'paytirish vazifalari qatoriga serhosil va tezpishar, kasallik va qishloq xo'jalik zarakunandalariga chidamli, tolasi yuksak texnologik sifatlarga ega bo'lgan yangi paxta navlarining seleksiyasi va shunday navlarini chiqarish borasida tadqiqotlarni faollashtirish, mashinalar kompleksini yaratishga ko'maklashish kabilar olimlarning muhim vazifalari qilib belgilandi[2].

Qishloq xo'jaligiga ma'muriy aralashuv, rejani bajarishning qat'iy talabi, ilmiy isbotlangan almashlab ekishga e'tiborsizlik kabi holatlar tabiiyki, tuproq unumdorligining kamayib, hosil sifatining pasayib ketishiga olib keldi. Shu maqsadda institut jamoasi tomonidan respublika paxta kompleksida ilmiy – asoslangan almashlab ekishni joriy qilish tavsiya etildi. Bu tavsiyalarga paxtachilikni rivojlantirish konsepsiyasi yuzaga keldi. Bu konsepsiyada barcha tarmoqlar, xususan, paxtachilik, sholichilik, sabzavot, kartoshka, polizchilik va chorvachilikni uyg'un rivojlantirish belgilandi. Shunga muvofiq paxta kompleksida g'o'za o'stiradigan maydonlarni 60 foizga qadar kamaytirish, beda va boshqa ozuqa ekinlarini yetishtirishni ko'paytirish ko'zda tutildi[3].

Qishloq xo'jaligidagi muammolarning ortib borishi paxta yetishtiradigan respublikalarda tuproqning turli xil yemirilishiga – suv, shamol, tuz, jar, tog' eroziyasida yaqqol ko'rina boshladi. Birgina, O'zbekistonning o'zida 3 mln.ga. yerdan ziyod yer tuproq eroziyasiga uchradi. Respublikadagi 252.94 ming ga. yer yuqori darajada sho'rlandi. Suv va tuproq eroziyasini oldini olish ishlari ham SoyuzNIXI olimlarining ilmiy tadqiqot ishlaridan o'rin oldi. 1980 yillarga kelib, olingan natijalarga ko'ra Qarshi cho'li, Buxoro vohasi va Xorazm oblastida ochiq zovurlardan, Mirzacho'lda esa vertikal drenajlarga o'xshash ochiq kollektor drenaj tarmoqlaridan, Farg'ona vodiysida yopiq gorizontal drenajlardan foydalanish yaxshi samara berishi isbotlandi[4].

Ekologik holatning buzilib borishi boshqa turli defoliantlarni ishlab chiqish, o'rganish va amaliyotga qo'llash vazifalarining qo'yilishi natijasida institut xodimlari "Do'stlik", "Hayot", "Dropp", "Defloraks", kabi defoliantlar tajribadan o'tkazdilar. "Hayot", "Dropp", "Gemtral" kabi defoliantlar g'o'za barglarini sifatli tushirishi mumkinligi isbotlandi. Bu defoliantlarning hatto, "zararsizligi" ham isbotlandi[5].

G.S.Zaytsev nomidagi Butunittifoq paxta seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy-tadqiqot institutida (VNISSX)da 1987 yil O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 26 oktabrdagi farmoyishiga binoan "Paxta urug'chiligi va seleksiyasi" (NPO) ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. NPOning vazifasiga yangi navlarni ishlab chiqishda institut ilmiy potensialini effektivligini oshirish vazifalari kirdi.

1977 yildan institutda "Seleksiya va urug'chilik" ixtisosligi bo'yicha fan nomzodi bo'yicha ilmiy unvon beradigan Kengash ishga tushdi. 1977-1990 yillar davomida Kengashda 54 nafar yuqori malakali mutaxassislar nomzodlik, doktorlik himoyalarni qildilar. Bu mutaxassislar tomonidan 1988 yilda V.A.Avtomonov, A.A.Avtomonov va b.lar tomonidan ixtiro qilingan, viltga qarshi tura oladigan S-4880 paxta navi, 1990 yildan P.V.Popov tomonidan ixtiro qilingan S-9070 respublikada rayonlashtirildi. 1990 yilga kelganda intitutda 5 ta bo'lim, 17 ta ilmiy laboratoriya ishlab turdi va shu yillardan yangi, chidamli S-6530, Namangan -77, Oqqo'rg'on, S-4908 navlari ustida tadqiqot ishlari olib borildi[6].

1960 yillardan G.S.Zaytsev nomidagi Seleksiya va urug'chilik ilmiy – tadqiqot instituti (NISSX), 1977 yildan Butunittifoq paxta seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy – tadqiqot instituti (VNISSX)da 1960-1965 yillarda S.S.Kanash, 1965-1976 yillarda Sh.I.Ibragimov, 1976-1987 yillarda S.M.Miraxmedov, 1987 yildan A.E.Egamberdiyevlar rahbarlik qildilar[7].

G.S. Zaytsev nomidagi paxta seleksiyasi va urug'chiligi butunittifoq ilmiy – tadqiqot institutining "Surxon" eksperimental-xo'jalik filiali har yili 14-15 ming tonna atrofida birinchi, ikkinchi tip ingichka tolali paxta yetishtirdi. Xo'jalikda 6 tadan 8 tagacha yangi tip tola eksperimentdan o'tkazilib turgan. Xo'jalik yetishtirilgan paxta xom ashyosi hamda urug'ni tozalash va tayyorlash maqsadida SSSR qishloq xo'jaligi vazirligi tarkibidagi paxta tozalash zavodlariga topshirdi. Bu zavodlar paxtaning seleksiya va ishlab chiqarishga topshirilgan barcha tipdagi tolani tayyorlandi. Xo'jalik hududida O'zbekiston SSR paxta tozalash sanoati vazirligiga qarashli o'rta tip tolali paxtani qayta ishlashga moslashgan zavod ham joylashdi.

1983 yilda SSSR Qishloq xo'jalik Ministrligi O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetidan "Surxon" paxta tozalash zavodini O'zbekiston SSR paxta tozalash sanoati vazirligidan o'rnatilgan tartibda O'zbekiston SSR Qishloq xo'jalik vazirligi tarkibiga o'tkazishni so'radi. Bu bilan zavod Namangan viloyati "Uychi" xo'jaliklararo agrosanoat tashkilotlari singari xom ashyosini ham qabul qilib olishi lozim edi. Bu bilan "Surxon" eksperimental-xo'jalik filiali Qashqadaryo va Surxondaryo xo'jaliklarini yuqori sifatli urug'lar bilan ta'minlashi kerak edi[8].

Biroq, O'zbekiston SSR paxta tozalash sanoati ministrligining javob xatida Surxondaryo viloyati A.M.Avtanomov nomidagi "Surxon" paxta tozalash zavodi Surxondaryo oblasti janubida yagona pilnogo djinirovaniya zavodi bo'lgan. Zavod o'rta tolali tip paxtani va IV sorta o'rta tolali paxtani qayta ishlagan. Zavodni maxsus ixtisoslashtirilgan urug'chilik zavodiga aylantirgan taqdirda ham talabga javob bermasligi, urug'ni saqlaydigan omborxonalar ham yo'qligi aytili. Mablag'ni yetishmasligi zavodni ingichka tolali paxta tayyorlash hamda maxsus seleksiyaga ixtisoslashtirish imkonini bermasligi aytili[9]. Shunday bo'lsada 1983 yil iyun oyiga kelib O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti bu bilan yangi ingichka tip tolali paxta yaratish va urug'chilikni yanada rivojlantirishga xizma qilishini inobatga olgan holda O'zbekiston SSR paxta tozalash sanoati vazirligiga qarashli A.M.Avtanomov nomidagi "Surxon" paxta tozalash zavodi O'zbekiston SSR Qishloq xo'jalik vazirligi tarkibiga o'tkazildi[10].

O'zbekistonda 1980 yillarning oxiriga kelib 60 foiz yer sho'rlandi. Bunday yerlarda beda va paxta almashlab ekishda ishtirok etuvchi ekinlarni yetishtirish uchun tuproqdagi ortiqcha zaharli tuzlarning ekin rivoji va hosildorligiga qalbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan o'ziga xos agrotexnik va meliorativ tadbirlarni amalga oshirish zovurlar fanida sho'r yuvish hisoblandi. SoyuzNIXI va uning tajriba stansiyalari hamda filiallarining ko'p marta va ko'p yillik tajribalarida "beda paxtaning eng yaxshi o'tmishdoshi" deb hisoblandi. Paxtachilikdagi butun almashlab ekish asosini paxta – beda almashlab ekishda joriy etilgan butun maydonning 90 foizini tashkil etishi kerak deb hisoblandi[11].

Darhaqiqat olimlar qishloq xo'jaligini rivojlantirish, xususan, almashlab ekish borasida bir qator ilmiy yangiliklarni ishlab chiqdilar. Jumladan, O'zbekistonning tuproq – iqlim sharoiti hisobga olingan holda paxtani almashlab ekish sxemalari ishlab chiqildi. Buning uchun respublika hududlarida tog' etagi va yarim cho'l adirlardan va tekis cho'l yerlardan iborat bo'lgan hududlarga bo'lib chiqildi. Shuningdek, viltga

qarshi almashlab ekish, tuproqni saqlovchi almashlab ekish, meliorativ dalada almashlab ekish kabilar ishlab chiqildi[12].

Almashlab ekish bo'yicha berilgan tavsiyalar, loyihalar asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar tartib bilan amalga oshirilmadi. Masalan, 1990 yilda QASSR 15 foizdan ortiq almashlab ekish maydonlari loyiha hujjatlari bilan ta'minlanmadi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida 23 foiz, Surxondaryoda 25 foiz, Sirdaryoda 17 foiz, Buxoroda 15 foiz, Samarqandda 5 va Xorazm viloyatida 8 foiz almashlab ekish loyiha hujjatlariga ega bo'lmadi. Butun respublika bo'yicha olganda har besh gektardan maydondan birida ahvol shunday bo'ldi. Bog'dorchilik va uzumchilik, chorvachilik va boshqa sohalarga ixtisoslashgan, ko'p yillik ekinlar ekiladigan o'zgina haydalagan uchastkalari yoki lalmikor yaylovlari bo'lgan xo'jaliklarning yerlari ham loyiha hujjatlari bilan ta'minlanmadi. Hatto, bunday hujjatlarni tayyorlash uchun qishloq xo'jalik organlari tomonidan buyurtmalar ham tushmagan[13].

SoyuzNIXIda ham amalga oshirib kelgan tadqiqot ishlarida sho'r yuvish masalasi ham dolzab bo'lib bordi. Masalan, paxta hosili va uning sifati ko'p jihatdan sho'r yuvish sifatli bo'lishi bilan bog'liqligi ko'rsatib berildi. Agar kuchsiz sho'rlangan yerlarda g'o'za tupining g'o'za tupining qalinligi 25-30 foiz, o'rtacha sho'rlanganda deyarli 40-50 foiz kamaysa, kuchli darajada sho'rlangan yerlarda esa 70-75-80 foiz kamaysa, bunday yerlarda paxta hosildorligi 2-3 baravar va undan ko'p kamayishi asoslab berildi. Bu ilmiy asosga qarab Mirzacho'l, Jizzax, Surxon-SHerobod cho'llarida sho'r

yuvishni o'tkazish yaxshi tashkil etilgan xo'jaliklarda paxta hosili gektariga 40 sentner va undan ko'proqqa yetgan.

Bahorda yer osti suvlari sathi ko'tarilganda sho'r yuvish samaradorligi ancha pasayishi belgilab berdi. Biroq, kuzgi shudgor qilish muddatlarining kechikishi sho'r yuvish muddatlarini cho'zib yubordi. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston ASSR, Xorazm, Buxoro oblastlari va Mirzacho'l zonasida ko'proq namoyon bo'ldi. Bu yerlarda sho'r yuvish asosan bahorda o'tkazilganligi sababli fan tavsiya etgan 6-8 kun o'rniga ba'zi xo'jaliklarda 1,5-2 oygacha cho'zilib ketdi[14]. Shu o'rinda ta'kidlash lozim, paxta hosildorligini oshirib borish, rejani bajarishning qat'iy talabi bu ilmiy natijalarning amalga oshirilishiga imkon bermadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, SIKP Markaziy Komiteti partiya rahbariyati paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti va paxta yetishtirish sohasidagi tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi boshqa birlashmalar faoliyatiga qonuniy ravishda, noo'rin aralashdi. O'zbekiston hududining ayrim hududlaridagi qishloq xo'jaligi ishlarining haqiqiy holati va vaziyatini bilmasdan, O'zbekiston SSR Paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti va paxtachilik sohasidagi tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan boshqa birlashmalarning tadqiqotlari natijasida paxta ekinlarini ko'paytirish va sifatini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Ammo, SIKP Markaziy Komiteti tomonidan rejani amalga oshirishga qat'iy talablar qo'yilganligi sababli ko'pgina ilmiy ishlar takliflari amalga oshmagan.

ADABIYOTLAR

1. Олим ва пахтакор – бир сафда // Совет Ўзбекистони 1977 йил 13 сентябрь.
2. Пахта даласининг илмий уфклари // Совет Ўзбекистони. 1978 йил 8 февраль.
3. Хусанов Р. Изланиш, натижа, истиқбол // Совет Ўзбекистони. 1989 йил 18 июль.
4. Хусанов Р. Изланиш, натижа, истиқбол // Совет Ўзбекистони. 1989 йил 18 июль.
5. Хусанов Р. Изланиш, натижа, истиқбол // Совет Ўзбекистони. 1989 йил 18 июль.
6. Всесоюзному ордену трудового красного знамени научно – исследовательскому институту селекции и семеноводства хлопчатника им. Г.С.Зайцева 70 лет. – Ташкент. ВНИИССХ им. Г.С.Зайцева, 1992- с. 17.
7. Всесоюзному ордену трудового красного знамени научно – исследовательскому институту селекции и семеноводства хлопчатника им. Г.С.Зайцева 70 лет. – Ташкент. ВНИИССХ им. Г.С.Зайцева, 1992- с. 19.
8. Ўз МА Р- 837, рўйхат – 41, йиғма жилд -6161, - 28 варақ.
9. Ўз МА Р- 837, рўйхат – 41, йиғма жилд -6161, - 30-31 варақлар.
10. Ўз МА Р- 837, рўйхат – 41, йиғма жилд -6161, - 38 варақ.
11. Илмий асосланган алмашлаб экишни жорий этиш ва ўзлаштириш, қишлоқ хўжалиги экинларини тўғри жойлаштириш ва ғўза агротехникаси масалаларига бағишланган жумхурият семинар – кенгаши материаллари. - Самарқанд. 1990 й. – Тошкент. 1990. – 71 бет.
12. Раҳмонов А. Ютуқлар, тўсиқлар, режалар // Илмий асосланган алмашлаб экишни жорий этиш ва ўзлаштириш, қишлоқ хўжалиги экинларини тўғри жойлаштириш ва ғўза агротехникаси масалаларига бағишланган жумхурият семинар – кенгаши материаллари. Самарқанд. 1990 й. – Тошкент. 1990. – 80 бет.
13. Раҳмонов А. Ютуқлар, тўсиқлар, режалар // Илмий асосланган алмашлаб экишни жорий этиш ва ўзлаштириш, қишлоқ хўжалиги экинларини тўғри жойлаштириш ва ғўза агротехникаси масалаларига бағишланган жумхурият семинар – кенгаши материаллари. Самарқанд ш., 1990 й. – Тошкент. 1990. – 8 б.
14. Имомалиев А. Эртапишар пaxта этиштириш технологияси. – Тошкент. Ўзбекистон, - 14 бет.